



## **OMMAVIY OFERTA** **(TBC UZ mobil ilovasi va TBC Business veb-ilovasidan** **foydalanish to'g'risida)**

### **Toshkent sh.**

Mazkur hujjat kelgusida "Bank" deb ataluvchi "TBC Bank" ATBning kelgusida "Mijoz" deb ataluvchi har qanday muomalaga layoqatli jismoniy shaxs nomiga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi, 369-moddasi 2-qismi va 370-moddasiga muvofiq "TBC Bank" ATB mobil ilovasi va TBC Business veb-ilovasidan (keyingi o'rinlarda "Shartnoma" deb ataladi) foydalanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzish to'g'risidagi rasmiy taklifi (Ommaviy oferta) hisoblanadi.

Mijozning ushbu Ofertada nazarda tutilgan harakatlarni bajarishi uning quyida keltirilgan shartlarga so'zsiz roziligini bildiradi (Ofertani qabul qilish). Oferta qabul qilingan vaqtdan boshlab Shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shartnomada to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilmagan barcha holatlarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, elektron hujjat aylanishi to'g'risidagi qonun hujjatlariga va ish muomalasi odatlariga amal qiladilar.

### **1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR**

**Mobil ilova** – "TBC UZ" nomi bilan AppStore va PlayMarket do'konlarida mavjud bo'lgan ilova, "TBC Bank" ATB tomonidan ishlab chiqilgan va taqdim etiladigan, foydalanuvchilarga bank xizmatlaridan, funkcionallardan va/yoki mijozlar - jismoniy shaxslar uchun axborotdan foydalanish imkoniyatini taqdim etish maqsadida mobil qurilmalarga o'rnatish va foydalanish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot.

**Veb-ilova** — TBC Business axborot platformasi, "TBC Bank" ATB tomonidan ishlab chiqilgan va taqdim etiladigan, foydalanuvchilarga Bankning mijozlari - jismoniy shaxslar - yakka tartibdagi tadbirkorlar, o'zini-o'zi band qilganlar yoki mansabdor shaxslar/vakolatli shaxslar uchun xizmatlardan, funkcionallardan va/yoki axborotlardan foydalanish imkoniyatini taqdim etish maqsadida veb-brauzer orqali foydalanish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot.

**Ilova** – TBC UZ mobil ilovasi va/yoki TBC Business veb-ilovasi.

**Mijoz** – muomalaga layoqatli jismoniy shaxs. Veb-ilovadagi mijozlar sifatida tadbirkorlik subyekti nomidan hisobvaraqq ochish vakolatiga ega bo'lgan shaxslar ham, ular tomonidan vakolat berilgan shaxslar (Rollar) ham hisoblanishi mumkin.

**Bank kartasi** – O'zbekiston Respublikasi banki tomonidan emissiya qilingan va "TBC Bank" ATB mobil ilovasida ro'yxatdan o'tkazilgan, onlayn rejimda ishlovchi, operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan bank to'lov kartasi.

**Shaxsga doir ma'lumotlar** — muayyan jismoniy shaxsga taalluqli yoki uni identifikatsiyalash imkonini beruvchi, Mijoz tomonidan Ilovada ro'yxatdan o'tishda va undan foydalanishda/Bank mahsulot/xizmatlaridan foydalanishda taqdim etilgan ma'lumotlar, shuningdek, Mijoz tomonidan Ilovadan foydalanish jarayonida avtomat ravishda Bankka uzatiladigan ma'lumotlar va Bank tomonidan boshqa manbalardan to'plangan ma'lumotlar.

**Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash** — Internet tarmog'ining hamma foydalanishi mumkin bo'lgan resurslariga - Bank saytlarining sahifalariga to'plash, yozish, tizimlashtirish,

yig'ish, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish, to'ldirish), ajratib olish, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, uzatish, joylashtirish, shaxsga doir ma'lumotlarni egasizlantirish va yo'q qilish bo'yicha bitta yoki xatti-harakatlar majmuini amalga oshirish.

**Uchinchi shaxslar** – agar amaldagi qonunchilikda boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, Bank va Mijozdan tashqari barcha boshqa shaxslar.

**Rollar** — Mijoz tomonidan oldindan belgilangan va/yoki Mijozga taqdim etilgan Foydalanuvchilarning mijoz maqsadiga ko'ra Veb-ilova foydalanuvchilariga taqdim etiladigan kirish darajalari va vakolatlari. Mavjud rollar ro'yxati ularning nomi, vakolatlari, Mavjud funksiyalar va Rol egasi amalga oshirishi mumkin bo'lgan operatsiyalar Veb-ilova interfeysidagi tegishli sahifada belgilangan.

## 2. AKSEPTLASH TARTIBI

2.1. Ushbu Ofertani qabul qilish Mijozni Ilovalarda ro'yxatdan o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Bunda, Mobil ilovada ro'yxatdan o'tish orqali ofertani qabul qilish holatida, Mijoz Veb-ilovada ro'yxatdan o'tishda ofertani qayta qabul qilishi kerak bo'ladi.

2.2. Ushbu Shartnomani tuzish orqali Mijoz Bankka, Bankning affilangan shaxslariga, Bank bilan bog'liq shaxslarga, shuningdek, Bank bilan yagona kompaniyalar guruhiga kiruvchi shaxslarga, Bank tomonidan vakolat berilgan boshqa tashkilotlarga, O'zbekiston Respublikasi hududida ham, uning tashqarisida ham, o'z shaxsiy ma'lumotlarini va Mijoz tomonidan Rollar taqdim etilgan shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini (shu jumladan, lekin quyidagilarni istisno etmasdan: to'lov va boshqa pul operatsiyalari ma'lumotlari, aloqa/mobil telefon raqami, bank kartalari ma'lumotlari, F.I.Sh., biometrik ma'lumotlar, tug'ilgan sanasi va joyi, doimiy va vaqtincha yashash manzili, fuqaroligi, pasport ma'lumotlari yoki identifikatsiyalovchi ID-karta yoki ularning o'rini bosuvchi hujjat ma'lumotlari, elektron pochta manzili, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR), mijozni psixologik, iqtisodiy, madaniy yoki ijtimoiy belgilari bo'yicha identifikatsiyalash uchun Bankka zarur bo'lgan ma'lumotlar, ma'lumoti va olingan mutaxassisligi, sug'urta badallari, soliq qarzdorligi, jamg'arib boriladigan pensiya badallari summasi, ko'chmas mulk va avtotransport vositalari, boshqa ko'char mulkka egalik qilish to'g'risidagi ma'lumotlar, daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar, mehnat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar, Mijoz bilan birga yashaydigan oila a'zolari, qarindoshlari yoki boshqa shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, mijoz bilan muloqot vaqtida to'plangan ma'lumotlar (elektron pochta, telefon, chat, ijtimoiy tarmoqlar yoki boshqa aloqa kanallari orqali), audio/video yozuvlar, Mijoz haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida Bank tomonidan yaratilgan ma'lumotlar (masalan, Mijozning xatti-harakati, afzalliklari, xavf-xatar reytingi va boshqalar), mobil qurilmada saqlanadigan va mobil ilova tomonidan alohida funksiyalar, xizmatlar, mahsulotlar/xizmatlarni amalga oshirish doirasida foydalaniladigan har qanday ma'lumotlar, shu jumladan cookie-fayllar va kirish imkoniyatini taqdim etish orqali uzatiladigan ma'lumotlar, Ilovaning foydalanilganda Bankka avtomat ravishda uzatiladigan yoki operatsion tizim darajasida rozilikdan keyin uzatiladigan boshqa ma'lumotlar, ochiq manbalardan olingan ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq qayta ishlanadigan ma'lumotlar, shuningdek, xizmatlar/mahsulotlardan foydalanish uchun zarur bo'lgan har qanday boshqa shaxsiy ma'lumotlar,) avtomatlashtirilgan hamda avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmagan holda qayta ishlashga rozilik beradi, ya'ni, to'plash, yozish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash,

aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish, to'ldirish), ajratib olish, foydalanish, uchinchi shaxslarga berish (shu jumladan - shaxsga doir ma'lumotlar subyektlari huquqlarining ham yetarli darajada himoya qilinishini ta'minlaydigan, ham ta'minlamaydigan xorijiy davlatlar hududiga), ushbu Shartnomada belgilangan maqsadlarda Bank saytlarining hamma foydalanishi mumkin bo'lgan Internet resurslari sahifalariga taqdim etish, tarqatish, joylashtirish, egasizlantirish, yo'q qilish.

2.3. Bank Mijozga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq Mijozning shaxsiy ma'lumotlari maxfiylikni ta'minlash bo'yicha barcha zarur choralar ko'rilishini kafolatlaydi. Mijozning shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishga bergan roziligi muddatsizdir, shu bilan birga, shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishga bergan roziligi istalgan vaqtda Mijoz tomonidan Bankka ariza berish orqali qaytarib olinishi mumkin.

2.4. Ushbu Ommaviy ofertani qabul qilib, Mijoz:

2.4.1. quyidagilar haqida xabardorligi va roziligini bildiradi:

- login, parol yoki bir martalik tekshiruv kodini kiritish bilan bog'liq barcha xatti-harakatlar, shuningdek, tasdiqlash oynasida amalga oshirilgan barcha harakatlar shaxsan Mijoz tomonidan amalga oshiriladi;

- Kredit bitimini tuzish, o'zgartirish va ijrosini monitoring qilish vaqtida tavakkalchilikni baholash maqsadida, shu jumladan Mijozni reyting baholash yo'li bilan Bank Mijoz va/yoki kreditlash obyektiga (zarurat bo'lganda) va/yoki kafilga tegishli barcha zarur ma'lumotlarni (kredit hisobotlari/kredit tarixi/kredit axboroti va h.k.) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi Kredit axboroti davlat reyestriga va/yoki "O'zR Kredit byurosi" MCHJga, Kredit-axborot tahliliy markaziga va boshqa tashkilotlar va banklarga berishga va/yoki olishga haqli;

- Davlat soliq xizmati organlarining Ma'lumotlarni qayta ishlash markazidan Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini so'rab olish va ulardan foydalanish.

- Ilovadan foydalanganda mijoz haqidagi anonim statistik ma'lumotlar avtomat ravishda (cookie'lardan) shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, mijozning geolokatsiyasi, mijozning telefon kontaktlari haqidagi ma'lumotlar to'planadi.

- Mijoz Veb-ilovada Rollar berilgan shaxslarning harakatlari va amalga oshirgan operatsiyalari uchun to'liq javobgardir.

- Mijoz Bank tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash uchun Roli taqdim etilgan shaxslarning roziligini tegishli tarzda olgan.

2.5. Ilovadan foydalanishni boshlashdan oldin ushbu Oferta matni bilan to'liq tanishib chiqish zarur. Oferta shartlariga to'liq yoki qisman rozi bo'lmagan holatlarda, Ilovadan foydalanmaslik kerak.

### **3. SHARTNOMA PREDMETI**

3.1. Mobil ilova mijozlarga O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan chiqarilgan plastik kartalar egalariga tovarlar, xizmatlar va ishlar uchun to'lovlarni onlayn rejimda amalga oshirish, bank kartalarini boshqarish, onlayn rejimda bank kartasi orqali pul o'tkazmalarini qabul qilish/jo'natish, Bank (kredit) mahsulotlarini olish va ulardan foydalanish, shuningdek, ilova funksiyasida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish imkonini beruvchi Ilovadan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. Veb-ilova mijozlarga yoki mijoz - Rol egalariga tadbirkorlik subyektining hisobini boshqarish - tranzaksiyalarni amalga oshirish, ko'chirmalarni

olish va budjetga to'lovlarni amalga oshirish va interfeysda ko'zda tutilgan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

3.2. Ilovalar mijozlarga taqdim etilishi mumkin bo'lgan Bankning kredit mahsulotlari xizmatlarini o'z ichiga olishi mumkin. Bunday xizmatlarni faollashtirish mijoz tomonidan mustaqil ravishda, xohishiga ko'ra, "TBC Bank" ATBning Bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo'yicha Bosh Shartlari (keyingi o'rinlarda "BSh" deb ataladi) va/yoki [www.tbcbank.uz](http://www.tbcbank.uz) va/yoki [tbcbusiness.uz](http://tbcbusiness.uz) saytida joylashtirilgan, xizmatlar tavsifi, ularni taqdim etish shartlari, foydalanish narxi va boshqa ma'lumotlar ko'rsatilgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlari ko'rsatish bo'yicha Bosh shartlar va ularga tariflar qabul qilinganidan so'ng amalga oshiriladi.

3.3. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

3.3.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va ichki normativ hujjatlarga rioya etilishini ta'minlash;

3.3.2. Mijoz taraf bo'lgan shartnomalarni tuzish va bajarish choralarini ko'rish, shu jumladan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarning joriy va kelgusidagi bajarilishini nazorat qilish va prognoz qilish;

3.3.3. Mijozning moliyaviy va mulkiy holatini, uning uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlarini tekshirish, kredit hisobotini, Mijoz to'g'risidagi kredit axborotini olish;

3.3.4. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq istalgan vaqtda istalgan miqdordagi istalgan manbadan Mijozga tegishli har qanday ma'lumotni so'rash;

3.3.5. Kommunikatsiyalar. Mijoz bilan aloqani amalga oshirish, shu jumladan, bank mahsulotlari/xizmatlari va ulardan foydalanish shartlariga taalluqli bildirishnomalar, so'rovlar va ma'lumotlarni yuborish, shuningdek, mijozlardan so'rovlar va arizalarni qayta ishlash, shu jumladan, bunday so'rovlar va arizalarni keyinchalik Bank kontragentlariga topshirish;

3.3.6. Bank xizmatlari /mahsulotlarining sifatini yaxshilash, ulardan foydalanish qulayligi, Bankning yangi xizmatlari/mahsulotlarini ishlab chiqish, mijozga moslashtirilgan bank xizmatlarini taklif qilish, hamkorlikning yangi usullarini ishlab chiqish va Bank biznesini rivojlantirish;

3.3.7. Bank va/yoki uning affilangan shaxslari va/yoki Bank bilan bog'liq shaxslar va/yoki Bank bilan yagona kompaniyalar guruhiga kiruvchi shaxslar, Bank tomonidan vakolat berilgan tashkilotlarni, statistik va/yoki marketing va boshqa tadqiqotlarni, kredit va/yoki tranzaksiya tarixini tahlil qilish, to'lovlar/o'tkazmalar, daromadlar, xarid qilish xatti-harakatlari va o'z va/yoki umumiy mijozlar va/yoki barcha mijozlarning boshqa ma'lumotlarini tahlil qilish; Ushbu Shartnomaning 3.3.7-band maqsadlari uchun Bank tomonidan belgilangan shartlar doirasida o'zining Mobil yoki Veb-ilovasida o'z mijozlari/foydalanuvchilariga Bank xizmatidan/mahsulotidan foydalanish imkoniyatini taqdim etadigan yuridik shaxs Bank tomonidan vakolat berilgan Tashkilot hisoblanadi;

3.3.8. Bank tomonidan yuridik, buxgalteriya, auditorlik, axborot (shu jumladan ma'lumotlarni joylashtirish va qayta ishlash, axborot texnologiyalarini yaratish) va maslahat xizmatlari olish;

3.3.9. Bank tomonidan, shu jumladan uning affilangan shaxslari va/yoki Bank bilan bog'liq shaxslar va/yoki boshqa tashkilotlar bilan birgalikda aksiyalar, so'rovnomalar, so'rovlar o'tkazish va/yoki yangi mahsulotlar/xizmatlar to'g'risida xabardor qilish;

3.3.10. Ilovadan foydalangan holda qonun hujjatlari yoki bitimlar talablariga zid bo'lgan xatti-harakatlarning oldini olish;

3.3.11. Ochiq manbalarga joylashtirish uchun turli hisobotlar, tadqiqotlar va/yoki taqdimotlar tayyorlash;

3.3.12. Bankning qonuniy manfaatlari va/yoki qonuniy huquqlarini himoya qilish.

3.4. Ushbu Shartnomaning 2.3. va 3.1-bandlari maqsadlari uchun Bank bilan yagona kompaniyalar guruhiga kiruvchi shaxslar quyidagilardan iborat: (1) Bank bevosita yoki bilvosita (boshqa shaxslar orqali, shu jumladan, qimmatli qog'ozlarning nominal egasi orqali) har qanday miqdordagi ulushga (ovoz berish huquqiga ega yoki ega emas) egalik qiladigan (yakka tartibda yoki boshqa har qanday shaxs bilan birgalikda) yoki nazoratni amalga oshiradigan (yakka tartibda yoki boshqa shaxslar bilan birgalikda boshqaruv organlari, qo'mitalar a'zosining siyosatiga, biznes qarorlariga yoki tayinlanishiga ta'sir ko'rsatadigan) yuridik shaxslar, ishonchli boshqaruv yoki ushbu shaxsning aksiyadorlari bilan kelishuv yoki boshqaruv organlari/qo'mitalarida ishtirok etish orqali; (2) Bankning aksiyadori bevosita yoki bilvosita (boshqa shaxslar orqali) ustav kapitalida (yakka tartibda yoki istalgan boshqa shaxs bilan birgalikda) ixtiyoriy miqdordagi ulushga (ovoz berish huquqiga ega yoki ega emas) ega bo'lgan yuridik shaxslar guruhi.

3.5. Ushbu Ommaviy ofertani qabul qilib, Mijoz O'zbekiston Respublikasining 02.07.2019-yildagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonunining 22-moddasida nazarda tutilgan o'z huquqlarini tushunishini tasdiqlaydi, ya'ni, uning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishga taalluqli axborotni olish huquqini o'z ichiga oladi, shu jumladan: 1) shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berilganligi faktini; 2) shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish asoslari va maqsadlari; 3) shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishning qo'llaniladigan usullari; 4) operatorning nomi va joylashgan joyi, shaxsga doir ma'lumotlarga kirish huquqiga ega bo'lgan yoki shaxsga doir ma'lumotlar operator bilan tuzilgan shartnoma asosida yoki qonun asosida oshkor etilishi mumkin bo'lgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar (operator xodimlari bundan mustasno); 5) shaxsga doir ma'lumotlarning tegishli subyektiga tegishli bo'lgan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov beriladigan ma'lumotlarning tarkibi, ularni olish manbai, agar qonunda bunday ma'lumotlarni taqdim etishning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa; 6) shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish muddatlari, shu jumladan ularni saqlash muddatlari; 7) shaxsga doir ma'lumotlar subyekti tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunida nazarda tutilgan huquqlarni amalga oshirish tartibi; 8) amalga oshirilgan yoki mo'ljallanayotgan transchegaraviy ma'lumotlar uzatilishi to'g'risidagi axborot.

#### 4. TOMONLAR MAJBURIYATLARI

##### 4.1. Bank:

- Ilovalarning zarur darajada ishlashini ta'minlash majburiyatini oladi, Ilovalar ishida uzilishlar uchinchi shaxslar/teknik va profilaktika ishlari sababli sodir bo'lgan hollar bundan mustasno;
- shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha shaxsga doir ma'lumotlarning yaxlitligi va but saqlanishini, shaxsga doir ma'lumotlarga qonunga xilof ravishda ishlov berishning oldini olishni ta'minlaydigan huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni ko'rish majburiyatini oladi;
- Mijozni Bankning yangiliklari, Bank hamkorlari, ilovalarda Mijozlar uchun to'lovlar mavjud bo'lgan tovarlar va xizmatlar/ishlarning yetkazib beruvchilari, shuningdek, ilovalarga kiritiladigan o'zgartirishlar va yangilanishlar haqida o'z vaqtida xabardor qilish majburiyatini oladi.

##### 4.2. Mijoz:

- ushbu Oferta talablarini bajarish majburiyatini oladi;

- Ilovalarga kirish, shu jumladan Rol egasining hisobiga kirish uchun vosita bo'lgan qurilmaning axborot xavfsizligini mustaqil ravishda ta'minlash majburiyatini oladi;
  - ushbu Shartnoma tuzilgandan so'ng, Mijoz autentifikatsiya ma'lumotlarining saqlanishi, ularning uchinchi shaxslarga berilishi va ushbu ma'lumotlardan foydalangan holda Bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun shaxsan javob beradi;
  - Ilovalardan foydalanib, o'zining muomalaga layoqatli ekanligini, shuningdek, Ilovalardan biror-bir firibgarlik va boshqa noqonuniy maqsadlarda foydalanmoqchi emasligini tasdiqlaydi va kafolatlaydi;
  - Bankka taqdim etilgan Mijoz va Rol egalari haqidagi ma'lumotlar haqqoniy, aniq, ishonchli, haqiqiy va Mijozning xohishiga mos keladi. Bunda Mijoz noto'g'ri, yolg'on, to'liq bo'lmagan ma'lumotlarni Bankka yetkazish oqibatlarini anglab yetadi;
  - Mijoz ushbu hujjatni o'z ehtiyoji uchun imzolaydi, uchinchi shaxslarning manfaatlarini ko'zlab harakat qilmaydi, soxta banklar va shaxslar bilan aloqasi yo'q;
  - Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini Bankning oldindan yozma roziligisiz uchinchi shaxslarga o'tkazishga haqli emas, Veb-ilovadagi Rollar bo'yicha vakolatlar berish bundan mustasno. Haqiqiy holatlardan qat'i nazar, Ilovalarda amalga oshirilgan barcha harakatlar Mijoz tomonidan ixtiyoriy ravishda amalga oshirilgan deb hisoblanadi.
- 4.3. Bank [www.tbcbank.uz](http://www.tbcbank.uz) saytida va/yoki axborot push-xabarlarida va/yoki Ilovalar interfeysida va/yoki sms-xabarnoma orqali ko'rsatilgan o'zgarishlarni e'lon qilish orqali bu haqda Mijozni xabardor qilgan holda ushbu Ofertaga bir tomonlama o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

## 5. TOMONLARNING MAS'ULIYATI

- 5.1. Tomonlar ushbu Shartnoma shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javob beradilar.
- 5.2. Mijoz ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida yuzaga keladigan har qanday zararlar yoki boshqa salbiy oqibatlar uchun javobgar bo'ladi.
- 5.3. Mijoz himoyalangan ulanishlardan foydalanadigan yoki zararli dasturlar va ilovalar tahdidi ostida bo'lgan qurilmada shaxsiy ma'lumotlarini kiritishda ularning saqlanishi uchun to'liq javobgardir.
- 5.4. Agar Mijoz tomonidan Shartnoma shartlarining bajarilmaganligi oqibatida ular lozim darajada bajarilmagan bo'lsa, Bank Shartnoma shartlarining lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.
- 5.5. Mijoz ushbu Oferta shartlari bilan, shuningdek, kredit va boshqa mahsulotlar shartlari bilan Ilovada faollashganda tanishib chiqmaganligi va (yoki) o'z vaqtida tanishib chiqmaganligi sababli Mijozda yuzaga kelgan har qanday zararlar uchun Bank javobgar bo'lmaydi.
- 5.6. Shartnoma shartlarining lozim darajada bajarilmaganligi uchun, agar bunday bajarmaslik Bank nazoratidan tashqarida bo'lgan sabablar tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, Bank javobgar bo'lmaydi. Bankning nazorat doirasi faqat Ilovaning ishlash imkoniyatlari bilan cheklanadi va uchinchi shaxslarning aybi bilan yoki davlat yoki sud hokimiyati organlari tomonidan qo'yilgan taqiq va cheklovlar natijasida yuzaga kelgan uzilishlar uchun javobgarlikni o'z ichiga olmaydi.
- 5.7. Ilovaning barcha axborot oqimi, shu jumladan barcha kontent, dasturiy ta'minot, funksional, materiallar va so'rov munosabati bilan taqdim etilgan yoki Ilova orqali foydalanish mumkin

bo'lgan ma'lumotlar istisno va qo'shimchalarsiz "qanday bo'lsa shunday," ya'ni o'zgarmas shaklda taqdim etiladi.

5.8. Bank Ilovalar foydalanadigan xizmatlar yoki kontent, materiallar, axborot va funkcionallarga nisbatan yoki ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan usullar bilan Ilovalardan foydalanilgan hollarda Ilovalar orqali maxfiy axborotni uzatish bilan bog'liq har qanday himoya buzilishlariga nisbatan hech qanday kafolat yoki kafolatlarni bermaydi.

5.9. Bank har qanday holatda Mijoz yoki uchinchi tomon oldida har qanday zarar va yo'qotishlar uchun, shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, foydani yo'qotish, obro'ga putur yetkazish yoki Mijoz tomonidan Ilovalar orqali tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib olish bilan bog'liq har qanday boshqa yo'qotishlar, shuningdek, Ilovalar orqali sotib olingan, olingan yoki to'langan har qanday tovarlar (ishlar, xizmatlar, ma'lumotlar, kontent) uchun javobgar bo'lmaydi.

5.10. Har bir Tomon ikkinchi Tomon ushbu Shartnomada belgilangan javobgarlik cheklovlarini e'tirof etgan holda ushbu Shartnomani tuzishini va ushbu cheklovlar tomonlar o'rtasidagi kelishuvlarning zarur asosi ekanligini e'tirof etadi va bunda Tomonlardan hech biri bunday tomonning oqilona nazoratidan tashqarida bo'lgan har qanday shartlar, shu jumladan hukumat faoliyati yoki terrorchilik harakatlari, zilzilalar, yong'inlar, suv toshqinlari yoki boshqa tabiiy ofatlar, mehnat sharoitlari bilan bog'liq vaziyatlar, ta'minotdagi uzilishlar va Internet aloqasining buzilishi kabi holatlar tufayli majburiyatlarni bajarmaslik yoki kechikish uchun, lekin ushbu holatlar bilan cheklanmagan holda, javobgar bo'lmaydi.

## **6. INTELLEKTUAL MULK**

6.1. Ilovalar, uning mazmuni, tuzilishi va dizayni Bankning mualliflik huquqi bilan to'liq himoyalangan. Bankning mutlaq huquqlari Bank tomonidan yaratilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan har qanday intellektual mulkka, shu jumladan uning tovar belgilariga ham taalluqlidir.

6.2. Bankning mualliflik va boshqa intellektual mulk huquqlari Ilovalarga va uning barcha kontentiga (jumladan, mahsulotlar va xizmatlarga) tatbiq etiladi.

6.3. Ilovalardagi har qanday axborot/kontent, jumladan, logotip, belgi, grafik, tasvir, patent, xizmat/tovar belgisi, dizayn, Bank tomonidan yaratilgan vizual media va boshqa intellektual mulkdan (ro'yxatdan o'tgan yoki ro'yxatdan o'tmagan) har qanday ruxsatsiz foydalanish, qayta ishlash yoki nashr qilish (shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar orqali) Bankning oldindan yozma roziligisiz taqiqlanadi.

6.4. Ilovalarda Intellektual mulkka havola qilish undan foydalanish uchun foydalanuvchiga litsenziya berilganligini anglatmaydi. Mijoz tomonidan Tijorat maqsadlarida Ilovalardan har qanday ma'lumotni yuklab olish (foydalanish) yoki nusxalash O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya etmaslik hisoblanadi.

6.5. Ushbu Ofertaning hech bir sharti ushbu bo'limda ko'rsatilgan Bankning intellektual mulkidan yoki litsenziyasidan foydalanish huquqini bermaydi.

## **7. SHARTNOMANI BEKOR QILISH**

7.1. Mijoz istalgan vaqtda Ilovalardagi akkauntni o'chirib tashlab, Shartnomani bajarishdan bosh tortishga haqli.

7.2. Shartnoma akkaunt o‘chirilganidan keyin darhol bekor qilingan hisoblanadi. Agar bunday xizmatlar faollashtirilgan bo‘lsa, mazkur Shartnomaning bekor qilinishi kredit mahsulotlari bo‘yicha Shartnomalarning bekor qilinishini anglatmaydi.

7.3. Mazkur Shartnomaning bekor qilinishi shaxsga doir ma‘lumotlarga ishlov berishga bo‘lgan rozilikni qaytarib olishni anglatmaydi. Mijoz o‘z shaxsiy ma‘lumotlarini va Rol egalarining shaxsiy ma‘lumotlarini qayta ishlashga bergan roziligini istalgan vaqtda Bankka ariza berish orqali qaytarib olishi mumkin.

## **8. NIZOLARNI KO‘RIB CHIQUISH TARTIBI**

8.1. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan har qanday nizo Mijozning murojaati asosida tinch yo‘l bilan yoki da‘vo tartibida hal qilinishi kerak. Murojaatni ko‘rib chiqish muddati va uning mazmuniga doir talablar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

8.2. Agar yuzaga kelgan nizo e‘tiroz tartibida hal qilinmasa, u Bank ro‘yxatga olingan joydagi idoraviy mansub sudda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda ko‘rib chiqilishi kerak.

8.3. Mijoz bilan da‘vo ishi va Mijozni texnik qo‘llab-quvvatlash xizmatlari faqat so‘rovlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash va tushgan so‘rovlarga javoblar yuborish orqali taqdim etiladi. Mijozlarning so‘rovlari shartnomaning 10-bo‘limida ko‘rsatilgan elektron pochta yoki telefon orqali qabul qilinadi.

## **9. BOSHQA SHARTLAR**

9.1. Bank va Mijoz o‘rtasidagi ushbu Ommaviy ofertada nazarda tutilmagan munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

9.2. O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida”, “Axborotlashtirish to‘g‘risida” va “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq, ushbu bilan Mijoz bank sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlarni va shaxsiy ma‘lumotlar to‘g‘risidagi axborotni, shuningdek, o‘z majburiyatlarini bajarish uchun Bankka zarur bo‘lgan boshqa qonun bilan qo‘riqlanadigan sirni uchinchi shaxslarga erkin ravishda, o‘z xohishiga ko‘ra va o‘z manfaatlarini ko‘zlab taqdim etishga Bankka rozilik beradi.

9.3. Tomonlar elektron shakldagi hujjatlarni, shu jumladan Ilovalar vositasida to‘ldiriladigan va tuziladigan hujjatlarni oddiy yozma shaklda tuzilgan hujjatlar sifatida tan olishga kelishib oldilar.

9.4. Agar ushbu Ommaviy ofertaning biror-bir sharti O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq noqonuniy va/yoki haqiqiy emas deb topilsa, Ommaviy ofertaning bunday shartlari Tomonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda qo‘llanilmaydi va Ommaviy ofertada mavjud bo‘lgan asl maqsadlarga maksimal darajada javob beradigan yangi shartlar bilan almashtiriladi. Ommaviy ofertaning qolgan shartlari to‘liq yuridik kuchini va haqiqiylikini saqlab qoladi.

9.5. Ushbu Ofertani qabul qilish bilan Mijoz Shartnomaning barcha shartlariga so‘zsiz roziligini tasdiqlaydi va uni bajarish majburiyatini oladi.





## **10. BANK REKVIZITLARI**

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani,

Fidokor ko'chasi 10B uy

Bank kodi: 01180 IFUT 64190

STIR: 207 318 613

Tel: 78 777-27-27

e-mail: [contact@tcbank.uz](mailto:contact@tcbank.uz)